

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi



**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**Э.Б.Ягъяева**

Дифференцированный метод обучения при изучении иностранного языка и организации самостоятельной работы студентов.....114

**M.K.Mavlyuda**

O'qituvchi kompetensiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....117

**G.A.Asomiddinova**

Qahramon xarakterini yaratishda badiiy nutq imkoniyatlari va muallif mahorati .....120

**N.K.Abbasova, Z.Q.Xakimova**

Speech act as an important function of communication .....125

**Sh.R.Muydinov**

Linguoculturological description of zoonym composite partial similarities.....128

**M.Madaminova**

Exploring the persuasive power of publicistic style: utilizing proverbs and sayings  
in english lesson .....130

**Sh.M.Yusufjonova**

Frazeologizmlar taqiqi.....134

**Ш.И.Аскарова**

К проблеме языковой интерференции и билингвизма при изучении  
третичного языка.....137

**Ш.И.Аскарова**

К вопросу трансфера и интерференции при изучении немецкого после  
английского языка .....141

**Sh.Sh.Dadabayeva**

Tarjimada so'zning kontekstdagi ma'nosini aniqlash usullari.....148

**Sh.Sh.Dadabayeva**

Tarjima jarayonida vaziyatning o'r ganilishi .....152

**Sh.Y.Usmonova**

Cognitive analysis of landscape terms in uzbek and english languages.....159

**Sh.Y.Usmonova**

O'zbek va ingliz tillarining terminologik tizimida landshaft terminlarining o'rni.....162

**Z.Sh.Pazilova**

Nemis xalqida dafn marosimining o'tkazilishi .....167

**Z.Sh.Pazilova**

O'zbek va nemis xalqlarida to'y bilan bog'liq shaxs nomlari .....170

**R.U.Axrорova**

Lingvomadaniyatshunoslik: lingvokulturema va logoepistema.....173

**O.O.Bobokalonov, R.U.Akhrorova**

Shifonemas in phraseological units related to the period of youth .....178

**R.U.Axrорova**

Fransuz ertaklarida yoshga oid reprezentlarning leksik-semantik va milliy-madaniy  
xususiyatlari .....182

**Z.M.Abdullaev**

Nemis tili ismlari motivlari va ism tanlashga ta'sir etuvchi omillar .....185

**Z.M.Abdullaev**

Nemis tilida atoqli otlar va ularning tasnif etilishi .....188

**I.R.O'rinboyev**

Ba'zi na'matak (*Rosa*) turlarining Farg'ona shahrida tarqalishi va dorivorlik xususiyatlari.....190

**I.D.Yakubov**

Separator-tozalagich qurilmasining parametrlari .....193

**M.Nazarov, A.T.Maxsudaxon**

Javdarni jadal texnologiyada parvarishlash .....201

**Ё.Г.Абдуганиев**

Получение и свойства производных перфторакриловой и перфторметакриловой  
кислоты .....205

**D.M.Ahmedova**

Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.....215

**O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDAGI LANDSHAFT TERMINNLARINING SEMANTIK TAHLILI****СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЛАНДШАФТНЫХ ТЕРМИНОВ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ****SEMANTIC ANALYSIS OF LANDSCAPE TERMS IN UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES****Usmonova Shaxnoza Yoqubjon qizi<sup>1</sup>**<sup>1</sup>Tabiiy yo'nalishlar bo'yicha chet tillari kafedrasi o'qituvchisi**Annotatsiya**

*Maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi landshaft terminlarining semantik tahlil qilingan va uning nutqimizda qo'llanilishi, olimlarning ilmiy tadqiqot ishlari tahlil qilingan. Shuningdek landshaft so'zining ma'nosi va bu so'zni tilshunoslikga kirib kelishi va o'zbek va ingliz tillaridagi landshaft arxisemali atamalarning morfologik xususiyatlari yoritilib berilgan.*

**Аннотация**

*В статье анализируется семантика ландшафтных терминов в узбекском и английском языках, их употребление в нашей речи, а также научные исследования ученых. Также выделено значение слова ландшафт и внедрение этого слова в лингвистику и морфологические особенности терминов с ландшафтными архетипами в узбекском и английском языках.*

**Abstract**

*The article analyzes the semantics of landscape terms in the Uzbek and English languages, their use in our speech, and the scientific research works of scientists. Also, the meaning of the word landscape and the introduction of this word into linguistics and the morphological features of terms with landscape archetypes in Uzbek and English languages are highlighted.*

**Kalit so'zlar:** landshaft, arxisema, sfera, antropogen, ibora, leksema, leksik birlik, biosfera.**Ключевые слова:** ландшафт, архисема, сфера, антропогенное словосочетание, лексема, лексическая единица, биосфера.**Key words:** landscape, archiseme, sphere, anthropogenic, phrase, lexeme, lexical unit, biosphere.**KIRISH**

O'zbek tilshunosligida tilning turli sohalariga mansub bo'lgan lug'aviy birliklarni o'rganishga va ularga xos xususiy holatlarni tadqiq etishga bag'ishlangan bir qator lingvistik izlanishlar mavjud bo'lib, mazkur tadqiqotlar ma'lum bir sohaning ichki tuzilishi bilan aloqador tushunchalar, ularning til sistemasida tutgan o'rning keng va atroflicha yoritilganligi bilan qimmatlidir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Lingvistik izlanishlarda termin tushunchasi turlicha talqin etilgan. Xususan, o'zbek tilshunosligida termin va terminologiya bo'yicha chuqr tadqiqotlar olib borgan A.Madvaliyev terminning chegaralangan leksik qatlamga mansub lug'aviy birlik sifatida terminologik tadqiqotlarning asosiy obyekti va terminologik lug'atlar yaratishda muhim manba ekanligini ta'kidlab o'tadi.

G'ismoilovning "O'zbek tili terminologik tizimlarida semantik usulda termin hosil bo'lishi" deb nomlangan tadqiqot ishi o'zbek tili terminologik sistemasining semantik tahliliga bag'ishlanganligi bilan diqqatga sazavor. Olim bu tadqiqot ishida terminlarning hosil bo'lish usullari va ularning taraqqiyotiga atroflicha to'xtalib o'tadi.

Landshaft termini geografiya, arxitektura, shaharsozlik va ekoliya kabi bir qator bilim sohalarida keng qo'llaniladi. Shu bilan birga, landshaft terminlari ko'p hollarda noaniq semantikaga ega. Qo'llanilgan terminlarning ma'nosi to'liq tasavvur bermaydi.

XVIII asrning 2-yarmida geografiyada "Landshaft" termini keng qo'llanila boshlandi. Shunday qilib, o'zbek va rus tillarida *landshaft*, nemis tilida *Landschaft*, ingliz tilida *Landscape*, fransuz tilida – *Paysage*, ispan tilida – *Paysage*, chek tilida – *Krajobraz* tushunchasi tarixan yer yuzasini o'rganuvchi fan sifatida fizik geografiyada shakllangan. Geosfera yoki geografik qobiq deb ataladigan sayyoramiz yuzasi uchta asosiy sferadan iborat: litosfera (yer qobig'i), gidrosfera (suv qobig'i) va atmosfera (havo qobig'i). Hozirgi vaqtida geografik qobiqning bir qismi sifatida turli funksiyalarga ega yigirmadan ortiq "sferalar" ajralib turadi.

Biosfera alohida "sfera" sifatida ajralib turadi. Ratzelning ta'rifiga ko'ra, biosfera nomi ostida

Yerda joylashgan barcha organizmlarning yig'indisi nazarda tutilgan. Ammo bu ma'noda termin ilmiy jamoatchilik tomonidan qabul qilinmadi va amalda unutildi. Faqat V.I.Vernadskiy biosfera terminiga hozirgi zamon ma'nosini berdi; biosfera deganda u hayot bilan to'yingan Yer qobig'ini nazarda tutgan.

Ana shu makonda inson, insoniyat jamiyati ya'ni hayot rivojlanadi. Birgalikda bu barcha "sferalar" maxsus hududiy tuzilma - landshaftlardan tashkil topgan Yerning landshaft qobig'ini tashkil qiladi.

Shuning uchun geosfera landshaft qobig'i bilan deyarli bir xil, ammo ular strukturaviy jihatdan farqlanadi. Geosferaning elementlari turli xil "sferalar" (itosfera, gidrosfera, biosfera va boshqalar)dan iborat. Landshaftning elementlari turli xil manzaraviy hududiy tizimlar bilan ifodalanadi.

Shunday qilib, fizik geografiyada landshaft hududiy tabiiy tizim yoki kompleks bilan belgilanadi. Geografik jihatdan hududiy bo'linishi (taksonizatsiya)ning asosiy kategoriyasidir.

Geografiyada landshaft tipologik tabiiy komplekslarni umumlashtiruvchi tushuncha: geologik zamini, relyefi, iqlimi, tuproqlari, o'simlik turkumi, hayvonot dunyosi, gidrologik rejimining bir xilligi bilan ajralib turadigan va tabiiy chegaraga ega bo'lgan hudud hisoblanadi. Yagona geologik poydevorga ega, bir xil turdag'i relyef, gidroiqlim rejimi, tuproq va biotsenozlar birikmasi hamda unga xos bo'lgan morfologik tuzilishga ega bo'lgan landshaft sferasining genetik jihatdan bir hil hududi (segmenti). Landshaft komponentlari - toshlar, suv, muz, qor, tuproq, havo massalari, o'simlik va hayvonot dunyosi.

V.V.Vladimirovning fikriga ko'ra, landshaft - bu o'zaro ta'sir qiluvchi tabiiy va antropogen komponentlardan, shuningdek, quyi taksonomik darajadagi komplekslardan tashkil topgan hududiy tizim. Tabiatni muhofaza qilish nuqtai nazaridan landshaftni resurs (resurslarni o'z ichiga olgan va qayta ishlab chiqaruvchi) tizim sifatida, inson hayoti va faoliyati uchun muhit bo'lgan, genofondni saqlaydigan tizim sifatida, tabiiy laboratoriya va estetik tarbiya manbai sifatida ko'rishimiz mumkin.

A.V.Sycheva esa landshaft tushunchasini o'zaro ta'sir qiluvchi tabiiy yoki tabiiy va antropogen komponentlar va quyi taksonomik darajadagi tarkibiy qismlardan tashkil topgan hududiy tizim sifatida izohlaydi. Landshaft tushunchasining xuddi shunday izohini "Shaharsozlik va hududiy rejalashtirish" konseptual-terminologik lug'atida ham ko'rishimiz mumkin.

E.B.Alayev landshaft tushunchasini abiotik (jonsiz), biotik (yovvoyi tabiat) va antropogen (inson tomonidan yaratilgan) elementlarning o'zaro ta'sirida rivojlanadigan birikma sifatida izohlaydi.

Landshaft ekologiyasi institutida (Chexoslovakiya, 1988-yil) landshaft komponentlari va elementlarining alohida quyi tizimlarining tuzilishini ochib beruvchi landshaft tizimining diagrammasi ishlab chiqilgan. Landshaft tizimining sxemasi landshaft tushunchasini biosferaning quyi tizimi sifatida belgilashga asoslanadi, u abiotik shakllanishlardan (tog' cho'qqilar, tog' jinslari, qumtepalar, muzliklar va boshqalar), biogenotsinozlar, gidrobiotsenozlar, antropotsenozlar va boshqa elementlardan tashkil topishi mumkin.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA

Biz mazkur maqolamizda oddiy umumiste'mol so'zlar bilan atamalar o'rtasidagi munosabatga e'tibor qaratgan holda o'zbek va ingliz tillidagi landshaft atamalarining taraqqiyotini o'rganishga emas, balki tanlangan obyekt birlıklarining sinxron asosda tahlil qilishni, "landshaft" arxisemali leksema va yaxlit birikmalarning ichki bo'linishlari, nutqiy voqelanishdagi xususiyatlarini aniqlashni maqsad qilib oldik.

Mazkur maqolamizda o'zbek va ingliz tillaridagi landshaft arxisemali atamalarning morfologik xususiyatlaridan kelib chiqib, ularni quyidagi guruhlarga jaratib, tasniflashni lozim topdik.

*I. Ot so'z turkumiga mansub so'z va birikmalar bilan ifodalangan landshaft sememali atamalar;*

*II. Fe'l so'z turkumiga mansub so'z va birikmalar bilan ifodalangan landshaft sememali atamalar.*

1. Ot so'z turkumiga mansub o'zbek va ingliz tillaridagi landshaft arxisemali atamalar. Atamalarning landshaft sememali terminologiyadagi ulushi 90 foizini tashkil etadi. Misol sifatida quyidagi atamalarni keltirib o'tish maqsadga muvofiq.

Masalan o'zbek tilida: *Alaslar* –Yakutiya tekisligida yozda qurib qoladigan ko'llar o'rnida hosil bo'ladigan bo'liq o'tloqlar; *Angor* – hosili yig'ib-terib olingen ekinzor, masalan, bug'doypoya, arpapoya; *Ag'dol* – tog' etagidagi jarlik, xalta dara, kirish qiyin bo'lgan joy, chuqr yer, tog' beli, ov

## MAXSUS SON

hayvonlari haydab qamaladigan joy; *Ang'iz* – g'allasi o'rib olingen dala. *Ang'izda* organik qoldiqlar bo'ladi; *Band* – to'g'on, suv ombori, soy va daryolarga qurilgan to'g'on; *Barxan* – cho'llardagi kuchma qum tepalari; *Bo'sag'a* – O'rta Osiyo va Qozog'istonda tog' oldi, tog' etagida joylashgan qir, do'nglar; *Dasht* – o'tlar bilan qoplangan o'monsiz hudud; *Dovon* – tog'ning oshib o'tish qulay bo'lgan joyi; *Qoya* – ko'pincha uchi o'tkir, qattiq tub tog' jinsidan tuzilgan balandlik; *Sayxon* – atrofi ochiq, tekis, keng yalang yer va boshqalar.

Ingliz tilida: *beach* (dengiz bo'y), *bay* (qo'litiq), *cavern* (katta g'or), *cliff(qoya)*, *forest* (o'rmon), *core* (markaziy joy), *dam(damba)*, *depression* (past havo bosimli joy), *desert* (sahro), *nunatak* (muzlik bilan qoplangan joy), *region*(chegarasiga ega joy), *reservoir* (tabiiy va sun'iy ko'l, suv ombori), *savanna* (tropic cho'l- biyobon), *taiga*(Sibir va Kanadadagi qalin o'rmonlar), *lawn* (maysazor).

Fe'l so'z turkumiga doir bo'lgan o'zbek va ingliz tili landshaft arxisemali atamalar. To'plangan misollar tahlilidan shuni ko'rishimiz mumkunki, o'zbek tili landshaft arxisemali atamalar tizimida fe'l so'z turkumiga mansub bo'lgan birliklar juda ozchilikni tashkil etadi. Bunday atamalar tizimida fe'lning harakat nomi shakli bilan ifodalangan landshaft atamalarini kuzatish mumkin. Ingliz tilida fe'l so'z turkumiga oid landshaft arxisemali terminlar deyarli uchramaydi.

Masalan, *Olish* – suvayrig'ich, to'g'on boshi, katta ariq, soy, daryolardan suv chiqarish uchun ochmligan joy. Obikor yerdarda uchraydi. *Oshuv* – O'rta Osiyo va Oltoyda keng tarqalgan dovon. *Ayrlish* – daryolar, tog' tizmalari, yo'llarning bo'lingan, tarmoqlangan joyi, kechuv – daryo, soy, ko'llardagi piyoda, otda, mashina va boshqalarda o'tish mumkin bo'lgan sayoz joy.

Landshaft arxiseyemali atamalarning ot va fe'l so'z turkumlari bilan ifodalanishi nisbiydir, chunki bunday atamalar ba'zan sifat va ravish so'z turkumlari bilan ham ifodalanishi mumkin. Masalan, *botiq, kungay, terskay, jim...*

*Botiq* – bu landshaft atamasi aslida ikki ma'noli qismning, ya'ni harakat-holatni anglatuvchi *bot* yetakchi morfemasiga -*iq* ko'makchi morfemasining qo'shilishidan tashkil topgan. Botiq leksemasi o'zbek tilining izohli lug'atida *ichiga botgan, botinqi* ma'nosini bildiruvchi, predmetning turli belgisini bildiruvchi sifat so'z turkumi sifatida berilgan. Geografik atama sifatida esa botiq so'zi o'zining belgi tashuvchi semasini yo'qotib, shu belgi-xususiyatga ega bo'lgan o'r'in joy bilan bog'liq ot-landshaft atamasini bildiradi. Botiq – ko'prof tektonik yo'l bilan vujudga kelgan, atrofi baland, tubi ko'pincha tekis, chuqurligi har xil bo'lgan yer yuzasining pastga botgan joyi ma'nosini bildiradi.

*Terskay* landshaft atamasi – bu atama ham *ters* va *-kay* ma'noli qismlarining o'zar o'z shilishidan tashkil topgan bo'lib, quyoshga teskari, quyosh tushmaydigan, shimolga qaragan me'nolarini bildiruvchi xususiya sifati bo'lib, geografik atama sifatida tog' va tizma tog'larning, jar, vodiyarning quyoshga teskari, shimolga qaragan, soya yonbag'ri ma'nosini ifodalovchi ot so'z turkumi sanaladi.

*Jum* landshaft atamasi ham aslida harakat-holatning turli belgilarini ifodalovchi ravish so'z turkumi hisoblanadi. Geografik atama sifatida esa daryolar o'zanining suv sekin oqadigan chuqr qismlari ma'nosini bildiradi.

Ingliz tilida *upland* so'zi up va *land* leksemalarning birikuvidan tashkil topgan qo'shma so'zli landshaft atamasi hisoblanadi. *Upland* leksemasi balandlikda joylashgan tepalikda kabi ma'nosini bildiruvchi sifat so'z turkumiga oid so'z hisoblanadi. Geografik atama sifatida tog'lik, balandlik kabi ot so'z turkumiga kiruvchi landshaft atamasini bildiradi.

*Plain* so'zi sodda tub shaklidagi atama bo'lib, lug'atlarda bir xil, oddiy, tekis kabi ma'nolarni anglatib, sifat so'z turkumiga oid so'z hisoblanadi. Geografik atama sifatida tekislik, tekis yer ma'nosini anglatadi.

*Range* so'zi ma'lum chegaradagi miqdor ma'nosida ravish so'z turkumiga kiradi. Georrafik atama sifatida esa tog' tizmasi ma'nosida keladi.

*Top* so'zi lug'atlarda yuqori, ustki, tepa degan ma'nolari ko'rsatiladi. Bu ma'noda u sifat so'z turkumiga kiradi. Geografik termin sifatida cho'qqi yoki tepalik degan ma'noni anglatadi.

Landshaftlarning bunday tavsiflanishi landshaft atamalari turi nomining maxsuslashish darajasini bildiradi. Biz mazkur maqolamizdayuqoridagi izlanishlarda aks etgan nazariy fikrlarga tayanib, "landshaft" arxisemali birliklarning tarkibiy tahvilini ularning turli belgilariga asoslangan holda, bir nechta tasnifiy guruhlarga ajratib tadqiq qilishni maqsad qilib oldik.

## XULOSA

Shunday qilib, yuqorida aytigancha asoslanib, biz landshaft tushunchasi tobora fizik-geografik kategoriyanidan umumiyl ilmiy kategoriyaiga aylanib bormoqda, degan xulosaga kelishimiz

mumkin. Aynan shu jihatda akademik L.S.Berg yarim asrdan ko'proq vaqt oldin shunday degan edi: "Geografik landshaft nomi deganda yerning ma'lum (landshaft) zonasni bo'ylab takrorlanadigan qismi ya'ni relyef, iqlim, o'simlik qoplami, hayvonot dunyosi, aholi va nihoyat, insoniyat madaniyati yagona uyg'un yaxlitlikka birlashadigan hudud tushunilishi kerak".

Insonning iqtisodiy va pragmatik faoliyati uchun sezilarli va ahamiyatli bo'lgan ayrim landshaft terminlari (relyef, o'simlik qoplami, suv omborlari, tuproq qoplami kabi), geografik nomlar bo'lgan toponomaya bilan chambarchas bog'liq. Har ikki holatda ham uchraydigan yaqinlik topografik obyektlarning bir xil turi ekanligi bilan bog'liq. Ya'ni, landshaft terminlari *nomina appellativa* bo'lganligi sababli belgilasa, toponimlar *nomina propria* sifatida nomlaydi.

Topografiya obyektlari orasida referentlarning o'ziga xosligi ko'plab landshaft terminlarining nomlanish jarayoniga jalb qilinishiga olib keladi, bu boshqa leksik-semantik guruhlarga qaraganda ko'p uchrovchi holatdir. Mikrotoponimlar va toponimlarning asosiy qismi landshaft terminlarining o'zi xosligi va obyektning qo'shimcha ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi. Toponimik korrelyatsiyalarni jalb qilish imkoniyati landshaft terminlarini, birinchi navbatda, diaxron nuqtai nazaridan o'rganish darajasini chuqurlashtiradi va izlanishlar darajasini kengaytiradi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. G'ulomov P., Mirakmalov M. Toponimika va geografik terminshunoslik – Toshkent, 2005. – 75 b.
2. Абдиев М. Соҳа лексикасининг систем таҳлили муаммолари. – Тошкент: А.Қодирий номидаги ҳалқ мөроси нашириёти, 2004.
3. Sh. Usmonova . Ingliz va o'zbek tilida landshaft so'zlarining qiyosiy tahlili va frazealogiya –Uzbek scholar journal – 2023,53-55 b